

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li*
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR 9-15
- Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ 16-20
- Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT
SIYOSATI 21-26
- Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрович*
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ
ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН
(XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) 27-32
- Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА
ТУТГАН ЎРНИ 33-41
- Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI 42-47
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ
ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА 48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Казаков Олим Сабирович*
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 56-60
- Utkirov Abbas Meyliyevich*
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-67
- Umrinov Eldorbek Sodirovich*
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI 68-76
- Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадилович*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО
ТУРИЗМА 77-82
- Xolmurotov Fozil Saribayevich*
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK
MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH 83-91
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 92-100

Гойипназаров Санжар Баходирович
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР 101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI 111-119

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фаррух Абдурахманович
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭХТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ 120-126

Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ 127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI 133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI 138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI 151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI 161-167

Мухамедова Феруза Баходир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА 168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimdjanovich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI 175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARINING QO'LLANILISHI 181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI 186-190

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

- Жавлиев Нурали Баходирович*
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ 191-195
- Узакова Гўзал Шариповна*
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ)..... 196-204
- Usmanov Alisher Tolmasovich*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA‘MURIY HUQUQBUZARLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR 205-213
- Авезова Элеонора Парахатовна*
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 214-218
- Мукумов Бобур Мелибой угли*
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
..... 219-224
- Туракулова Назира Абдишукуровна*
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН 225-232

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Хўжамкелдиев Гафур Султон ўгли*
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ 233-237
- Aziz Xasanovich Rajabiy*
BO‘LAJAK VOKAL O‘QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH 238-242
- Malikova Sevar Samatovna*
BO‘LAJAK XOR RAHVARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH 243-246
- Васильченко Ольга Анатольевна*
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ 247-251
- Хојитуродова Маһлиёхон Кенжавоу қизи, Inomov Faxriddin O‘rmonjonovich*
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES 252-257
- Асадуллаева Наргиза*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ 258-265
- Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*
BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI 266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

07.00.00-Тарих фанлари

Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li
Farg'ona Davlat Universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrası o'qıtuvchisi
e-mail: a.usmonov1995@gmail.com

AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada amaliy san'at bilan bog'liq bo'lgan nomoddiy madaniy meros turlari miniatyura, qo'g'irchoqsozlik, mahsichilik, me'morchilik kashtado'zlik, zargarlik, zardo'zlik, gilamchilik, pichoqchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik tarixi va O'zbek xalq amaliy san'ati o'zbek xalqi madaniyatining bir bo'lagi ekanligini yodda saqlagan holda ularni asrab qolish hamda xalq amaliy san'ati uslublarini o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: miniatyura, qo'g'irchoqsozlik, me'morchilik kulolchilik, kashtado'zlik, zargarlik, zardo'zlik, gilamchilik, pichoqchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, mahsichilik, teri, taglik, yuza, poy, kursi.

Usmanov Akhrorjon Rustamjon ugli
Fergana State University
Teacher of the Department of History of Uzbekistan

INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE RELATED TO APPLIED ARTS

Abstract: The types of intangible cultural heritage related to applied arts in this article are miniatures, doll-making, mosaics, architecture, embroidery, jewelry, goldsmithing, carpet-making, knife-making, painting, jewelry, wood carving, embroidery. The history and Uzbek folk art are considered to be a part of the culture of the Uzbek people, preserving them and the uniqueness of folk art styles.

Key words: miniature, doll-making, architecture, pottery, embroidery, jewelry, goldsmithing, carpet-making, knife-making, painting, jewelry, wood-carving, embroidery, carpentry, leather, sole, surface, leg, chair.

Усманов Ахроржон Рустамжон угли
Ферганский государственный университет
преподаватель кафедры истории Узбекистана

НЕМАТЕРИАЛЬНОЕ КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ, СВЯЗАННОЕ С ПРИКЛАДНЫМ ИСКУССТВОМ

Аннотация: В данной статье видами нематериального культурного наследия, относящимися к прикладному искусству, являются миниатюра, кукольное дело, мозаика, архитектура, вышивка, ювелирное дело, золотое дело, ковроткачество, ножеделие, живопись, ювелирное дело, резьба по дереву,

резьба. Учitando, что история и узбекское народное искусство являются частью культуры узбекского народа, существует мнение об их сохранности и своеобразии стилей народного творчества.

Ключевые слова: миниатюра, кукольное дело, архитектура, гончарство, вышивка, ювелирное дело, ювелирное дело, ковроткачество, ножеделие, роспись, ювелирное дело, резьба по дереву, резьба, столярное дело, кожа, основа, поверхность, ножка, стул.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N01>

Kirish. O'zbek xalqining ko'p asrluk tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san'at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, O'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usuli bilan buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda. Ma'lumki, yoshlarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san'atga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda Amaliy san'atning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarga xalq hunarmandchiligi sohalariga oid beriladigan bilimlar moddiy madaniyat va amaliy bezak san'atini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi va shaxs uchun muhim bo'lgan qator sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa yoshlarga milliy merosimiz va an'analarimizni o'rgatish, asrab-avaylash va qayta tiklash hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishda ko'maklashadi.[1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xalq amaliy san'ati O'zbekiston hududidagi barcha viloyat va tumanlarda, azim shaharlar va chekka qishloqlarda rivojlangan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Qo'qon, Andijon, Namangan va boshqa hududlardagi naqshinkor imoratlar dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. O'zbekiston xalq amaliy san'atida Farg'ona vodiysi o'ziga xos o'rin egallaydi. Amaliy san'atning qaysi turi haqida yuritilmasin, vodiya uning yuksak darajada rivojlanganini ko'rish mumkin.[2]

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, amaliy san'at har bir xalq maishiy hayotining tarkibiy qismi sifatida xalqning milliy xususiyatlarini o'zida aks ettirib kelmoqda. Yaqin o'tmishda O'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan. Bu xususida arxeologiya va amaliy san'at yo'nalishiga oid adabiyotlardan ma'lumotlar olish mumkin.

Qadimda hunar o'rganish muqaddas hisoblangan. Har bir xalq kelajak avlodlariga o'zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. Farg'ona vodiysi xalq amaliy san'ati deganda, avvalo, Farg'ona viloyati xalq amaliy san'ati ko'z oldimizga keladi. Bu viloyat qadim-qadimdan o'zining mashhur san'atkorlari, qo'li gul hunarmand ustalari bilan nom qozongan. Qo'qon, Marg'ilon, Quva, Rishton, Oltiariq va boshqa joylardagi turli tarixiy obidalar, zamonaviy inshootlar, xonadonlarda uchraydigan naqsh, ganch, yog'och o'ymakorligi namunalari, pichoqlar, zargarlik, zardo'zlik, kashtachilik buyumlari bu viloyatda xalq amaliy san'atining qadimdan mavjudligi, davrlar o'tishi bilan rivojlanib borgani, bugungi kunda yanada

takomillashib, chuqur ildiz otib borayotganidan darak beradi. Bunday ma'lumotlar P.P Shabaratonov, K. G'ulomov, Sh. Mamasoliyeva, M.Nabiyev, O. Axmedova, N. Abdulahadov kabi etnograf va san'atshunoslarning ilmiy-uslubiy tadqiqotlaridan foydalanilgan holda yoritilib berildi.

Natijalar va muhokama. O'zbek xalq amaliy san'ati o'zbek xalqi madaniyatining bir bo'lagi bo'lib, badiiy estetik bilimlarning shakllanishida katta ahamiyatga egadir. O'zbek xalq amaliy san'ati asosini naqqoshlik tashkil etadi. Uning eng oddiy prinsiplari-uyg'unlik, bir-biriga mutanosiblik va usullarning qayta takrorlanishi ranglarning nafisligidir. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi.

Xonliklar davrida xalq amaliy san'ati ustalari Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarga yig'ila boshladilar. Ko'pincha Farg'ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo'qon, Marg'ilon ustalari Toshkentga kelib ko'pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishida, o'ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishida, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta ro'l o'ynaydi.[3]

Naqqoshlik san'atini tahlil qiladigan bo'lsak, Farg'ona naqshi Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Namangan, Chust, Quva, Rishton va Oltiariqda vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo'lgan naqshlar ko'plab osori-atiqalarda saqlanib qolgan. Farg'ona vodiysida o'ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj topgan edi. Farg'ona naqqoshlari girix, o'simliksimon (islmiy) va gulli girix naqshlarini o'z asarlarida keng qo'llaganlar. Kompozitsiyalarning simmetriyali bo'lishi prinsipiga amal qilganlar. Vodiy naqqoshlarining ishlari boshqa naqqoshlik maktablariga doir asarlardan yana shunisi bilan farqlanadiki, bu naqshlar tabiatga yaqin, erkin ishlangan. Shu bilan birga, vodiy naqshlari boshqa naqshlardan ranglarining kontrastligi bilan ham farqlanadi. Shuningdek, Farg'ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g'uncha va boshqa unsurlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanilgan. Chunonchi, Farg'ona naqshlariga qarasak, pista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiysidagi naqsh kompozitsiyalari tabiatga juda yaqinligi bilan Xiva, Toshkent, Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg'ona naqqoshlari chetlari chiroyli qilib, ichiga islmiy naqshlar tushirilgan qizil, yashil bo'yoqlar bilan ishlangan turunjni afzal ko'radilar. Farg'ona naqqoshligida Rishton kulolchiligiga xos moviy bo'yoqlar ko'p ishlanib, unda asosan o'simlik dunyosi naqshlari yetakchilik qiladi. Chunki aynan ularda mahalliy aholining «jannat bog'i» va kosmogonik diniy falsafa haqidagi tushunchalari o'zining ifodasini topgan.

Milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishi Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa tuman va viloyatlarda o'ziga xos naqqoshlik maktablarini yuzagakeltirgan edi. An'anaviy naqqoshlik noyob badiiy san'at turlaridan biri — tosh va suyak o'ymakorligi hisoblanadi. Bu san'atni xalq orasida toshtaroshlik va sangtaroshlik deb ham ataydilar. Nihoyatda katta iste'dod, zo'r sabr-toqat, og'ir mehnat talab qiladigan bu kasb qadimdan rivojlanib kelgan. Ma'lumki, dastlabki ishlab chiqarish qurollari toshdan yasalgan. Naqqoshlik san'ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning g'oyaviy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalay boshladi.

Me'morchilik imoratlarining markazi Qo'qon shahri bo'lgan. Qo'qon xonligida qurilish va me'morchilik bilan birga amaliy san'at ham rivoj topgan. Xususan, amaliy san'atning naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi sohalari yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib,

ular da me'morchilikda keng foydalanilgan. Amaliy san'atning yuqori darajasi Xudoyorxon saroyida, Oltiariqdagi Do'sti Xudo masjidi ayvonida ishlangan naqshlarda, Andijon atrofidagi Otaqo'zi madrasasi bezaklaridagi islomiy naqshlarda, Chodak masjidining yog'och va ganch o'ymakorligida, Rishtondagi Xo'ja Ilg'or masjidining shift bezaklarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Qo'qon xonligi me'morchiligi va amaliy san'atida butun O'rta Osiyo uchun xos bo'lgan an'anaviy uslublar bilan bir qatorda mahalliy xususiyatlar ham saqlangan. Qo'qon me'morchilik maktablarining vakillari jamoat binolarini qurish va ularni bezashda, naqshlar tanlashda o'z maktablarining an'alarini takomillashtirganlar hamda rivojlantirganlar. Qo'qon mahalliy me'morchilik maktablari o'zlarining keng rejali, hajmli manzaralari, bezak va jihozlarning g'oyat nafisligi, ranglarning sho'xchanligi, hamda yog'och va ganch o'ymakorligi bilan ajralib turadi. Xonlik me'morchiligida chiroyli qilib aylantirib urg'u berilgan, ichiga islomiy naqshlar tushirilgan, ko'proq qizil hamda yashil bo'yoqlar bilan jilolangan bezaklardan foydalanilgan.[4]

Farg'ona turarjoylari o'zining simmetrik tarhi va tarzi bilan ajralib turadi. Buyerda ikki xona o'rtasida dahliz joylashtirilgan, ular ko'pincha hovli tomondan uzun ayvon bilan birlashtirilgan bo'ladi. Mehmonxona o'zining serhasham bezagi bilanqolgan xonalardan farq qiladi. Dahlizda turli tuzilishdagi bezakli mo'ri o'rnatilgan.[5]

O'zbekiston arxitektura yodgorliklarining nihoyatda boy bezaklari butun dunyo e'tiborini tortmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, O'zgan kabi shaharlarning betakror qiyofasini yaratgan qadimiy me'morlarning yuksak mahorati va badiiy iqtidori qalblarni to'lqinlantiradi.

Amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan yog'och o'ymakorligi ham qadim tarixga ega. Yog'och o'ymakorligidan ilgari, asosan me'morlik san'atida va ro'zg'or buyumlarini bezatishda foydalanilgan. O'ymakorlikning bu sohasida naqsh yog'ochini o'yib, kesib, chizib, teshib, taxta yoki yog'och buyumlarini bir-biriga yopishtirib hosil qilinadi.

XIV asrlarga kelib, yog'och o'ymakorligi rivoj topdi. Farg'ona vodiysi xalq amaliy san'atida yog'och o'ymakorligi san'ati ham o'ziga xos uslublarda rivojlangan. Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan shaharlarida ham, vodiyning chekka qishloqlarida ham mashhur yog'och o'ymakor ustalari bilan bir qatorda hali el orasida shuhrat qozonib ulgurmagani, ammo bu sohada allaqachon o'z uslubi va yo'lini topib olgan usta hamda ustazodalar juda ko'p.[6]

Marg'ilon o'ymakorlari o'ymakorlikning chuqur zaminli yassi o'yma uslubidan foydalanadilar. Qo'qonlik ustalar kalta bo'rtmali yassi o'yma usulini yoqtiradilar. Quva o'ymakorlari esa kalta bo'rtmali, yassi o'yma naqshlar yaratganlar. Peshtoqda ham naqsh bilan qoplangan yassi bo'rtmali, zaminsiz chizma yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan. Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi, Buxorodagi Sitorayi Mohi Xosa, Xivadagi Toshhovli, Marg'ilondagi Saidahmadxo'ja madrasasi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi va boshqalarda o'zbek yog'och o'ymakorligi san'atining bebaho namunalari yaxshi saqlanib qolgan. Qo'qon o'ymakor ustalari yaratgan turli buyumlarida (kursi, rom, quticha va hokazo) yassi, kalta bo'rtmali o'ymali, ya'ni pargari uslubi qo'llanilgan. Ular me'morlikda eshik va ustunlarga yirik chuqur naqshlar o'yib yasaganlar. Marg'ilon o'ymakorlari ham shu uslubda ishlaganlar. Ular ko'pincha terak, yong'oq yog'ochidan foydalanib, o'yilgan naqsh yuziga to'qroq rang berib, keyin loklaganlar.

Odatda yog'och o'ymakorlari rassom, chizmachilarning naqqoshlar bilan hamkorlikda ish olib boradilar, naqqoshlar chizgan naqsh andazasiasosida gul o'yadilar. Hozirgi kunda yog'och o'ymakorligidan yirik ijtimoiy binolar va turli tipdagi mebellar, mayda uy-ro'zg'or

buyumlarini bezashda foydalanilmoqda.

Qo'g'irchoqsozlik — xalq amaliy san'atining qadimiy turi. Bu san'at turi ham insonlarning tabiat bilan munosabatlari natijasida paydo bo'lgan. Dastlabki qo'g'irchoqlar hayvon ko'inishida bo'lgan va loydan yasalgan. Sekin-asta murakkablashib borgan. O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlar asosan dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishgan va ularning san'ati shu turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi azaldan bolajon xalq bo'lgan. Bolalar uchun esa ovunchoq qo'g'irchoqlar kerak bo'lgan. Qo'y, qo'chqor, o'rdak, g'oz, xo'roz, baliq, chig'anoq shaklidagi hushtaklar shular jumlasidandir. Bunday qo'g'irchoqlar orqali bolalar tarbiyalangan. Osiyo xalqlarida arusaksoz, qo'g'irchoqsoz, qurchoqchi kabi kasb egalari mahalliy xom ashyodan diniy, marosim yoki ovunchoq maqsadida o'yinchoq-qo'g'irchoqlar yasashgan va ular Buyuk Ipak Yo'li orqali ko'p xalqlarga tarqalgan. Mahalliy xom ashyo deganda tuproq-loy, yog'och, qamish, mato, jun, suyak kabi materiallar nazarda tutilmoqda. Afsuski bizgacha faqat sopoldan yasalgan qo'g'irchoqlargina yetib kelgan. Muzeylarda saqlanayotgan aravaga qo'shilgan ot haykalchasi, ajdarho ko'rinishi haykalchasi shular jumlasidandir. O'tgan asrning 50 yillaridan keyin qo'g'irchoqbozlik unutila boshlangan edi. Hozirgi kunga kelib qo'g'irchoqlarni yasovchi hunarmandlarning sayi harakatlari tufayli eski an'analar tiklana boshladi. Farg'ona viloyatida qo'g'irchoq tayyorlash san'atining namoyondalari sifatida Sharifjon Mirzaraximov, Tillaxon Matyoqubova, Mirzakarim G'afurovlarni keltirish mumkin.[7]

Amaliy san'atning yana bir o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan miniatyura san'ati uzoq yillar davomida shakllangan, sayqallangan ijod turidir. Miniatyura lotin tilida qizil rangning nomlaridan biri, odatda qo'lyozmaga ishlangan rasmlar shunday nomlangan. Bezak va taqinchoqlarga tushirilgan tasvir, mo'jaz, ushshoq tasvir deb ham yuritiladi.[8] Sharq miniatyurasining nozik jihatlari, murakkabliklari ijodkordan katta mehnat va izlanishni talab etadi. Miniatyura asarida tabiatni, inson-u jonzotlarni, bir qarashda biz anglamaydigan go'zallikni tasvirlab, uni yuksak san'at asariga aylantirish uchun ijodkor keng bilim va mahorat, yuksak saviya, did va qobiliyat sohibi bo'lishi lozim. Miniatyuralar chizish tarixi tosh davriga borib taqaladi. Avval toshlarga, keyin hayvonlarning terilariga chizish orqali shakllanib, rivojlanib borgan. XV–XVII asrlarga kelib bu soha yuksak darajada kamol topgan. XV–XVII asrlarda Markaziy Osiyo tasviriy san'at maktablarida portret janri hamda tarixiy voqealar tasviri uzviy va izchil mavzuga aylanganligi kuzatiladi.[9]

San'atning ushbu turi rivojida ikkita tamoyil mavjud bo'lib, birinchisi – miniatyura rangtasviri badiiy merosiga ijodiy yondashgan holda va naqshin syujetda zamonaviy voqelikni aks ettirish bo'lsa, ikkinchisi – mumtoz miniatyuraning badiiy qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilishdan iborat.[10]

Miniatyura san'ati hozirgi davrda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan. O'zbekistonda miniatyura san'ati bilan shug'ullanib kelayotgan ko'plab rassomlar mavjud. Ular o'z asarlarini qog'oz va teriga chizadilar. Miniatyura san'atining boshqa tasviriy san'at asarlaridan farqli ikki jihatini ko'rsatib o'tish mumkin. Birinchidan, miniatyura asarlarining hajmi yirik bo'lmaydi, ikkinchidan unda tasvirlangan detallarning hajmida birinchi va keyingi planlarda farq bo'lmaydi, ya'ni uzoqda joylashgan detal ham birinchi plandagi detal bilan bir xil hajmda aks ettiriladi. Miniatyura san'atining YUNESKO Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgani uzoq tarixga ega va O'zbekistonda o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetgan ushbu san'at turining xalqaro e'tirofidir desak yanglishmagan bo'lamiz.

Mahsichilik ham amaliy san'atning o'ziga xos yo'nalishidir. Insoniyat tomonidan ixtiro etilgan oyoq kiyimlar ichida mahsi deb nomlanuvchi poyabzal ham bor. "Mahsi tagi poshnasiz, tekis, yumshoq charmdan tikilgan qo'njli oyoq kiyimi".[11] Bu oyoq kiyimidan juda uzoq yillar davomida ham erkaklar, ham ayollar tomonidan foydalanilgan. Uni asosan yilning sovuq fasllarida kiyishgan. Mahsi kun davomida xonadon ichida oyoqdan yechilmasdan kiyib yurilib, tashqariga chiqqanda uning ustidan kalish kiyilgan. O'zbekiston hududida hozirgi kunda ham (qishloq joylarda ko'proq) yoshi ulug' erkak va ayollar mahsi kiyishadi. Mahsi tayyorlashda Farg'ona vodiysining hunarmandlari qadimgi davrlardan boshlab yetakchilik qilib kelishadi. Ular tomonidan tayyorlangan mahsilar hozirgi kungacha nafaqat O'zbekistonning boshqa hududlari, balki qo'shni mamlakatlarga ham olib ketiladi. Mahsilarni tayyorlash sirlari ustozdan shogirdga uzatilib kelinadi.[12] Aksariyat hollarda hunarmandchilikning ushbu turi bilan oilaviy shug'ullanishadi. Mahsi tayyorlash uchun pishiq, shu bilan bir qatorda qayishuvchan teri kerak bo'ladi va ana shu maqsadlarga yosh mol terisi to'g'ri keladi. Mol terisi maxsus usulda oshlanib, keyin rang beriladi. Tayyor bo'lgan xom ashyodan mahsiga zarur bo'lgan qismlar (taglik, yuza, poy) andoza asosida kesib olinadi. Ushbu qismlar bir-biriga qo'shib tikilgach mahsi tayyor bo'ladi. Sovuq kunlarda kiyish uchun juni olinmasdan oshlanadigan terilardan ham foydalaniladi. Bunda, terining junli tomoni ichkari tomonda qoldirilib tikiladi va u oyoqni juda issiq holda saqlash imkonini beradi. Mahsining tikilishida qattiq yog'ochdan tayyorlangan qoliplardan foydalaniladi. Qoliplar mahsilarning tegishli hajm (razmer)da tikilishi va mahsi qismlarining bir-biriga mos ravishda qo'shib tikilishiga xizmat qiladi. Mahsi oldingi davrlarda faqat tabiiy teridan tayyorlangan bo'lsa, keyingi davrga kelib turli boshqa sun'iy terisifat xom ashyolardan ham tayyorlanmoqda.

Qadimda hunar o'rganish muqaddas hisoblangan. Har bir xalq kelajak avlodlariga o'zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. O'zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Masalan, Andijon viloyatida, Shahrixon, Samarqand viloyatida Urgut, Farg'ona viloyatida Qo'qon, Marg'ilon, Namangan viloyatida Chustda xalq hunarmandchiligi gullab yashnagan.[13] Hunarmandlar o'sha davrda mahallalarga bo'linib yashaganlar, chunonchi zargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi, deb yuritilgan. O'sha davrlarda yana misgarlik, bo'yrachilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravasozlik, va kulolchilik mahallalari mavjud bo'lgan. Marg'ilon shahrida hunarmandchilik taraqqiy etganligi bois mahalla nomlarida ham o'z ifodasini topgan: Miltiqsoz, Toshkesar, Qo'rxona, Yo'rmado'z, Mixchargar, Shirmonpaz, Taqachi, Tandirchilik, Tillopaz, Pichoqchilik, Kosagiron, O'qchi, Do'ppido'zlik, Kosibchilik, Eskifurush shular jumlasidandir.[14]

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda o'zbek xalq amaliy san'atining dovrug'i dunyoga yoyildi. O'zbek xalq amaliy san'atining qaysi turi haqida so'z bormasin, bizning faxrlanishga arzirli yutuqlarimiz bor. Amaliy bezak san'ati har bir xalqning maishiy turmushining tarkibiy qismi sifatida asrlar osha shakllanib kelgan milliy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Farg'ona vodiysi xalq amaliy san'ati deganda, avvalo, Farg'ona viloyati xalq amaliy san'ati ko'z oldimizga keladi. Bu viloyat qadim-qadimdan o'zining mashhur san'atkorlari, qo'li gul hunarmand ustalari bilan nom qozongan. Qo'qon, Marg'ilon, Quva, Rishton, Oltiariq va boshqa joylardagi turli tarixiy obidalar, zamonaviy inshootlar, xonadonlarda uchraydigan naqsh, ganch, yog'och o'ymakorligi namunalari, pichoqlar, zargarlik, zardo'zlik, kashtachilik buyumlari bu viloyatda xalq amaliy san'atining qadimdan mavjudligi, davrlar o'tishi bilan

rivojlanib borgani, bugungi kunda yanada takomillashib, chuqur ildiz otib borayotganidan darak beradi. Tarixan rivojlanib kelayotgan avlodlar xotirasini saqlash va asrab-avaylash kerak bo'lsa shu o'tmishga nazar tashlab osori atiqalarga hurmatda bo'lish va rivoji uchun kurashish har bir inson uchun burch ekanligini doimo dilda saqlash lozim va kerakdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mamasoliyeva Sh.L. Haq hunarmandchiligi. – SamDU nashri. 2021. 3-b.
2. Ro'zinov B. A. Academic research in educational sciences volume 2 . 117-b
3. G'ulomov K. Amaliy san'at. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.; - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. 13-b
4. Nabiyev M., Tursunov Q.Q. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1. Issue. 243-b
5. Ahmedova O. "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" T-2018. 59-b
6. Ro'zinov B. A. Academic research in educational sciences volume 2 . 117-b
7. O'zbekiston nomodiy madaniy merosi. Yunesko ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi. ICHKAP, MOTXI 2017
8. Shabaratov P. P. Miniatur :o'quv qo'llanma – T. : Tafakkur, 2011. 123-b
9. O'zbekiston nomodiy madaniy merosi. Yunesko ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi. ICHKAP, MOTXI 2017. 230-b
10. Shabaratov P. P. Miniatur :o'quv qo'llanma – T. : Tafakkur, 2011. 61-b
11. Shabaratov P. P. Miniatur :o'quv qo'llanma – T. : Tafakkur, 2011. 122-b
12. O'zbekiston nomodiy madaniy merosi. Yunesko ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi. ICHKAP, MOTXI 2017. 246-b
13. K.G'ulomov. Amaliy san'at. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.; - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. 19-b
14. Abdulahadov N. Eshonboboyev O'. Marg'ilon mahallalari tarixidan. Andijon nashriyat matbaa MCHJ.2012 9-b
15. <http://lex.uz//ru/docs/-168968> PF-1741-son.31.03.1997. "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida".

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).